Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/7

Rustamjon BOZOROV[a]
[a]*Doctor of Philosophy (PhD) in Law*
Researcher

«TABLIG‘ JAMOATI»NING MARKAZIY OSIYODA TARQALISH OMILLARI VA MILLIY XAVFSIZLIKKA TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqolada 1920-yillarda Hindistonda shakllangan «Tablig‘ jamoati» transmilliy diniy harakatining tarixiy-g‘oyaviy asoslari, tashkiliy amaliyoti va Markaziy Osiyoda tarqalish omillari tahlil qilinadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlar, mintaqa davlatlaridagi sud qarorlari haqidagi ochiq ma’lumotlar hamda O‘zbekistonning diniy sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlari qiyosiy o‘rganiladi. Deoband maktabi bilan g‘oyaviy aloqalar, oltita tamoyil, «xuruj» amaliyoti va ishtirokchilarning norasmiy aloqalari harakatning tarqalishiga ta’sir qilgan omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Huquqiy yondashuvlardagi farqlar davlatlarning diniy siyosati va institutsional muhiti bilan bog‘liq holda izohlanadi. Milliy xavfsizlikka ta’sirni baholashda diniy konservatizmni ekstremizm bilan aynanlashtirmaslik, shu bilan birga qonunda belgilangan taqiqlar va sud qarorlarini hisobga olish zarurligi asoslanadi. G‘oyaviy mazmun, ixtiyoriylik, tashkiliy shakl, xorijiy aloqalar va shaxsiy javobgarlikka oid tahliliy mezonlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *«Tablig‘ jamoati», transmilliy diniy harakat, Deoband, da’vat, Markaziy Osiyo, milliy xavfsizlik, vijdon erkinligi, ekstremizm, huquqiy maqom.*

FACTORS IN THE SPREAD OF TABLIGHI JAMAAT IN CENTRAL ASIA AND ITS IMPACT ON NATIONAL SECURITY

Abstract. *This article examines the historical and ideological foundations, organisational practices, and factors contributing to the spread of Tablighi Jamaat, a transnational religious movement that emerged in India in the 1920s. It compares international scholarship, publicly available information on court decisions in Central Asia, and Uzbekistan’s legislation on religion. Connections with the Deobandi tradition, the movement’s six principles, khuruj, and informal participant networks are considered as factors in its expansion. Differences in legal approaches are examined in relation to national religious policies and institutional settings. The article argues that assessments of national security implications should distinguish religious conservatism from extremism while taking applicable legal prohibitions and court decisions into account. It proposes analytical criteria concerning ideological content, voluntary participation, organisational form, foreign connections, and individual responsibility.*

Keywords: *Tablighi Jamaat, transnational religious movement, Deoband, da‘wa, Central Asia, national security, freedom of conscience, extremism, legal status.*

KIRISH

Globallashuv sharoitida diniy harakatlarning milliy chegaralardan tashqarida faoliyat yuritishi, ularning transmilliy ijtimoiy tarmoqlarga aylanishi va turli mamlakatlarning diniy-ijtimoiy muhitiga ta'sir ko'rsatishi zamonaviy dinshunoslik hamda xavfsizlik tadqiqotlarining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Transmilliy diniy harakatlar faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, ularning g'oyaviy markazlari, tashkiliy aloqalari va ishtirokchilari turli mamlakatlarda joylashgan bo'lishiga qaramasdan, umumiy diniy qadriyatlar va jamoaviy faoliyat shakllari orqali o'zaro bog'liqlik saqlanib qoladi. Bunday harakatlarning faoliyati muayyan mamlakatdagi diniy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq mazkur ta'sirning ijtimoiy va huquqiy oqibatlari barcha davlatlarda bir xil namoyon bo'lmaydi.

Shu nuqtai nazardan, 1920-yillarda Hindistonda shakllangan «Tablig' jamoati» diniy harakati alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Tadqiqotchilar uni dunyodagi eng yirik transmilliy islomiy harakatlardan biri sifatida baholaydi (Masud, 2000:XIII–LX; Noor, 2012). Harakat dastlab musulmon aholi o'rtasida diniy-axloqiy tarbiya va ibodat amaliyotini mustahkamlashni maqsad qilgan bo'lsa, keyinchalik xalqaro diniy tarmoqqa aylangan. Uning faoliyatida shaxsiy diniy yangilanish, jamoaviy safarlar, diniy suhbatlar va oddiy musulmonlarni da'vat jarayoniga jalb etish muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, «Tablig' jamoati»ning xalqaro maydondagi huquqiy maqomi bir xil emas: Qozog'istonda 2013-yilda sud qarori bilan harakatning faoliyati taqiqlangan bo'lsa (RFE/RL, 2013), Qirg'izistonda uning diniy-ijtimoiy hayotdagi o'rni va mahalliy institutlar bilan munosabatlari boshqacha shakllangan (Balci, 2012:61–76).

Mazkur holat quyidagi ilmiy muammoni keltirib chiqaradi: nega umumiy diniy-mafkuraviy asoslarga ega bo'lgan transmilliy harakat turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiluvchi huquqiy va institutsional baholarga ega bo'lmoqda? Ushbu savolga javob izlashda harakatning diniy ta'limotini o'rganishning o'zi yetarli emas. Davlatlarning diniy sohadagi siyosati, ekstremizmga qarshi qonunchilik xususiyatlari, diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi hamda mahalliy diniy muhit bilan munosabatlarini ham o'rganish zarur.

O'zbekiston uchun mazkur masala alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizda diniy sohadagi davlat siyosati vijdon erkinligini ta'minlash, dunyoviy davlat tamoyillarini mustahkamlash, diniy bag'rikenglikni rivojlantirish hamda ekstremizm va terrorizmning oldini olish vazifalarini o'zaro uyg'unlashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023:35-modda). 2025-yil 25-fevraldagi O'RQ-1037-son Qonun bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konseptsiyasida ham qonuniylik, vijdon erkinligi, tenglik, erkin tanlov va dinlararo muloqot prinsiplari belgilangan (O'RQ-1037, 2025:8–10-bandlar). Shu sababli xorijiy diniy harakatlar faoliyatini baholashda milliy xavfsizlik talablari bilan insonning konstitutsiyaviy huquqlari o'rtasida huquqiy muvozanatni ta'minlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – «Tablig' jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillarini va mintaqa davlatlaridagi huquqiy maqomini qiyosiy tahlil qilish asosida transmilliy diniy harakatning milliy xavfsizlikka ta'sirini baholashning huquqiy mezonlarini ishlab chiqish. Vazifalar: harakatning tarixiy va g'oyaviy asoslarini aniqlash; uning tashkiliy amaliyoti va tarqalish mexanizmlarini tavsiflash; Markaziy Osiyo davlatlaridagi huquqiy yondashuvlarni qiyoslash; O'zbekiston sharoitida ta'sirni baholash mezonlarini asoslash.

«Tablig' jamoati» bo'yicha xorijiy ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh harakatning tarixi va g'oyaviy asoslariga bag'ishlangan. M. X. Mas'ud tahriri ostida nashr etilgan «Travellers in Faith» to'plamida harakat «iymonni yangilashga qaratilgan transmilliy islomiy harakat» sifatida tavsiflanadi va uning Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Yevropa va Afrikadagi faoliyati tahlil qilinadi (Masud, 2000:XIII–LX). B. Metkalf harakat amaliyotida hadislarning kundalik hayotga tatbiq etilishini («jonli hadis») o'rganib, uning g'oyaviy modelini Deoband maktabi an'analari bilan bog'laydi (Metcalf, 1993:584–608). D. Retts va M. Gaborio harakatning tasavvuf an'analari bilan munosabatini tahlil qilib, uning islohotchilik ruhi va ichki tuzilmasidagi tasavvufiy unsurlarni ko'rsatgan (Reetz, 2006:33–51; Gaborieau, 2006:53–72).

Ikkinchi guruh harakatning turli mintaqalardagi faoliyatiga bag'ishlangan. F. Nur Janubiy-Sharqiy Osiyoda harakatning tarqalish mexanizmlari va ishtirokchilarning shaxsiy tajribasini o'rgangan (Noor, 2012). Markaziy Osiyo bo'yicha eng muhim tadqiqotlardan biri B. Balchiga tegishli bo'lib, u harakatning Qirg'izistonda tarqalishini mustaqillikdan

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

keyin Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi diniy aloqalarning tiklanishi bilan izohlaydi (Balci, 2012:61–76). A. Xolid esa sovet davridan keyingi Markaziy Osiyoda islomning jamiyatdagi o‘rni va davlatlarning diniy siyosatini tahlil qilib, mintaqa davlatlari diniy sohani tartibga solishda xavfsizlik omiliga ustuvor ahamiyat berganini ko‘rsatgan (Khalid, 2007).

Uchinchi guruhni huquqiy va xavfsizlik masalalariga oid manbalar tashkil etadi. Bularga mintaqa davlatlarining normativ-huquqiy hujjatlari, sud qarorlari haqidagi rasmiy axborot va xalqaro OAV xabarlari kiradi (RFE/RL, 2009; RFE/RL, 2013). Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlarda harakatning diniy-ijtimoiy jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyo davlatlaridagi huquqiy maqomini qiyosiy tahlil qilish va xavfsizlikka ta’sirni baholashning huquqiy mezonlarini ishlab chiqish masalasi qo‘shimcha tadqiqotni talab qiladi.

Tadqiqotda tarixiy-dinshunoslik, qiyosiy-huquqiy va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Harakatning g‘oyaviy asoslari ilmiy adabiyotlar orqali, mintaqadagi huquqiy yondashuvlar esa normativ-huquqiy hujjatlar va sud qarorlari haqidagi ochiq ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Sud qarorining to‘liq matni bilan uning rasmiy sharhi yoki OAVdagi bayoni farqlandi. Qirg‘izistonga oid ijtimoiy tavsiflar manbalarda yoritilgan davr doirasida talqin qilindi. Turkmaniston bo‘yicha birlamchi ma’lumotlar cheklangani sababli qat’iy qiyosiy xulosa chiqarilmadi. Tahlilda diniy konservatizm, transmilliy diniy faoliyat, ekstremizm va terrorizm tushunchalarini farqlashga e’tibor qaratildi.

ASOSIY QISM

«Tablig‘ jamoati»ning vujudga kelishi XX asr boshlarida Hindistonda kechgan diniy islohotchilik jarayonlari bilan bog‘liq. O‘sha davrda Hindiston musulmon jamoalarida diniy o‘zlikni saqlash, diniy ta’limni rivojlantirish va an’anaviy diniy amaliyotni mustahkamlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan. Harakat asoschisi Muhammad Ilyos Kandhlaviy (1885–1944) ana shu muhitda diniy tarbiya va ommaviy da’vatga asoslangan yo‘nalishni shakllantirgan. Ko‘pchilik tarixiy tadqiqotlarda harakatning dastlabki shakllanishi 1926-yilga, faoliyat boshlangan hudud esa Dehli yaqinidagi Mevat mintaqasiga nisbat beriladi (Masud, 2000:XIII–LX; Sikand, 2002).

Muhammad Ilyos Kandhlaviy diniy bilim va amaliyotni faqat ulamolar faoliyati doirasida cheklab qo‘ymasdan, oddiy musulmonlarni ham diniy targ‘ibotga jalb etishni muhim deb hisoblagan. Mazkur yondashuv harakatning tashkiliy va g‘oyaviy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Uning asosiy mohiyati shaxsiy diniy intizomni kuchaytirish, ibodatga rioya etish va diniy qadriyatlarni jamoaviy munosabatlar orqali tarqatishdan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga, harakat faoliyatining dastlabki bosqichini keyinchalik yuzaga kelgan xalqaro tashkiliy aloqalar va huquqiy muammolar bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi, chunki tarixiy rivojlanish jarayonida harakatning geografik qamrovi, ishtirokchilar tarkibi va mahalliy davlatlar bilan munosabatlari o‘zgarib borgan.

«Tablig‘ jamoati»ning g‘oyaviy asoslarini o‘rganishda Deoband diniy maktabi muhim ahamiyatga ega. XIX asrning ikkinchi yarmida Hindistonda tashkil etilgan Deoband madrasasi sunniy islomning hanafiy fiqh an’analariga tayangan diniy ta’lim markazi sifatida shakllangan (Metcalf, 1982). Deoband muhitida diniy bilim, shaxsiy ibodat, axloqiy intizom va islomiy an’analarni saqlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. «Tablig‘ jamoati» asoschilari ushbu muhit bilan bog‘liq bo‘lgani sababli harakatning diniy qarashlarida mazkur maktabning muayyan ta’siri kuzatiladi (Metcalf, 1993:584–608; Reetz, 2006:33–51).

Biroq bu holatdan Deoband an’analari bilan bog‘liq barcha diniy tashkilotlar bir xil maqsad va faoliyatga ega, degan xulosa chiqarish mumkin emas. Tarixiy va diniy bog‘liqlikni muayyan tashkilotning tashkiliy bo‘ysunuvi yoki siyosiy maqsadlari bilan tenglashtirish ilmiy-metodologik xato hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan «Tablig‘ jamoati»ning Deoband bilan munosabatini umumiy diniy-intellektual manbaga asoslangan g‘oyaviy yaqinlik sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq.

«Tablig‘ jamoati» faoliyatida olti asosiy diniy-axloqiy tamoyil muhim o‘rin tutadi. Ushbu tamoyillar ishtirokchilarning diniy hayotini tashkil etish va jamoaviy diniy tarbiyani amalga oshirish uchun konseptual asos hisoblanadi: kalima (iymon va e’tiqodni mustahkamlash), namoz (ibodat intizomi), ilm va zikr (diniy bilim va ma’naviy tarbiya), ikromi muslim (musulmonlarga hurmat), ixlosi niyat (niyatning samimiyligi) hamda da’vat va tablig‘ (diniy g‘oyalarni yetkazish) (Metcalf, 1993:584–608; Masud, 2000:XIII–LX).

Ushbu olti tamoyilning umumiy xususiyati shaxsiy diniy amaliyotni jamoaviy diniy faollik bilan bog‘lashdan iborat. Bunday modelning ijtimoiy ahamiyati shundaki, oddiy ishtirokchi faqat diniy bilim qabul qiluvchi subyekt emas, balki uni boshqalarga yetkazish jarayonining ishtirokchisiga ham aylanadi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Bu holat harakatning keng tarqalishiga xizmat qilgan omillardan biri sifatida baholanishi mumkin. Biroq maxsus diniy tayyorgarlikka ega bo‘lmagan shaxslarning diniy ma’lumotlarni mustaqil sharhlashi uning mazmuni va ishonchliligini baholash zaruratini ham keltirib chiqaradi. Shu bois mazkur faoliyatning xavfsizlik uchun ahamiyatini aniqlashda tarqatilayotgan g‘oyalarning mazmuni, diniy muloqotning ixtiyoriyligi va amaldagi huquqiy talablarga muvofiqligi o‘rganilishi lozim.

«Tablig‘ jamoati»ning g‘oyaviy xususiyatlaridan biri siyosiy hokimiyat uchun kurashni harakatning asosiy maqsadi sifatida ilgari surmasligidir. Tadqiqotchilar harakatning siyosatdan uzoq turishini uning turli mamlakatlarda faoliyat yurita olishining muhim sharti sifatida ko‘rsatadi (Masud, 2000:XIII–LX; Noor, 2012). Mazkur xususiyat uni davlat boshqaruvini diniy asosda o‘zgartirishga qaratilgan siyosiy harakatlardan farqlaydi. Biroq siyosatdan uzoq turish konseptsiyasini harakatning ijtimoiy ta’sirga ega emasligi bilan tenglashtirish noto‘g‘ri bo‘ladi. Diniy harakat shaxsning qadriyatlari, hayot tarzi, ijtimoiy munosabatlari va jamoaviy o‘zligini shakllantirish orqali jamiyat hayotiga bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, diniy faoliyatning ommaviylashishi, norasmiy jamoalar shakllanishi va xalqaro diniy aloqalarning kengayishi davlatning diniy sohani huquqiy tartibga solish vazifalari bilan o‘zaro bog‘liq jarayonlar hisoblanadi.

«Tablig‘ jamoati»ning tashkiliy amaliyotida diniy safarlar, ya’ni «xuruj» muhim o‘rin egallaydi. Mazkur safarlar ishtirokchilarning ma’lum muddat davomida kundalik hayot muhitidan tashqarida jamoaviy diniy amaliyotda qatnashishini nazarda tutadi. Harakat an’anasida uch kun, qirq kun va to‘rt oy kabi davrlar uchraydi, biroq ularning qo‘llanilishi mahalliy jamoalar va tarixiy sharoitlar bo‘yicha farqlanishi mumkin (Noor, 2012). Diniy safarlarni sotsiologik nuqtai nazardan jamoaviy o‘zlikni mustahkamlovchi va diniy ijtimoiylashuvni kuchaytiruvchi amaliyot sifatida talqin qilish mumkin. Birgalikda ibodat qilish, diniy suhbatlarda ishtirok etish va umumiy jamoaviy hayot ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlaydi.

Diniy safarlarning huquqiy jihatlari diniy targ‘ibot, xorijga chiqish va diniy tashkilotlar faoliyatiga oid talablar bilan bog‘liq. O‘zbekistonda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun missionerlik va prozelitizmga yo‘l qo‘ymaydi. Bunda qonunning 3-moddasida berilgan ta’riflarni ham hisobga olish zarur: har qanday diniy suhbat yoki safarni avtomatik ravishda missionerlik deb baholash to‘g‘ri emas. Faoliyatning mazmuni, maqsadi va qonunda belgilangan belgilarga mosligi alohida aniqlanishi lozim (O‘RQ-699, 2021:3 va 7-moddalar).

Markaziy Osiyo davlatlaridagi huquqiy maqom

Markaziy Osiyo mamlakatlarining diniy sohadagi davlat siyosati mustaqillikdan keyin turli institutsional yo‘nalishlarda rivojlangan (Khalid, 2007). Ayrim davlatlarda diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning faoliyatini nazorat qilish tizimi nisbatan qat’iylashgan bo‘lsa, boshqalarida diniy jamoalar bilan institutsional muloqot shakllari kengroq rivojlangan. «Tablig‘ jamoati»ning mintaqadagi faoliyati ushbu farqlarni o‘rganish imkonini beradi.

Qozog‘iston. Qozog‘iston Respublikasi Antiterror markazining rasmiy ro‘yxatida «Tabligi jamag‘at» 2013-yil 26-fevraldagi Ostona shahri Sariarqa tuman sudi qarori asosida faoliyati taqiqlangan tashkilotlar qatorida ko‘rsatilgan (Qozog‘iston Respublikasi Antiterror markazi, 2023). Bu holat tashkilot faoliyatiga nisbatan sud orqali cheklov joriy etilganini tasdiqlaydi. Tashkilotning huquqiy maqomi bilan muayyan shaxsning javobgarligi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, aynan bir masala emas: shaxsga huquqiy baho berishda uning aniq xatti-harakati va tegishli qonun normalari tekshirilishi kerak.

Qirg‘iziston. B. Balchining 2012-yildagi tadqiqotida harakatning mamlakatda tarqalishi mustaqillikdan keyin Janubiy Osiyo bilan diniy aloqalarning tiklanishi orqali izohlanadi (Balci, 2012:61–76). Bu manba harakatning muayyan davrdagi ijtimoiy o‘rni va mahalliy diniy muhit bilan munosabatlarini o‘rganishga yordam beradi. Biroq tarixiy-sotsiologik tavsifni mamlakatdagi bugungi huquqiy maqomning tasdig‘i sifatida qo‘llab bo‘lmaydi. Hozirgi holatni baholash amaldagi qonunchilik va vakolatli organlarning yangilangan hujjatlarini alohida tekshirishni talab qiladi.

Tojikiston. Tojikistonda harakatga nisbatan cheklovchi huquqiy yondashuv 2000-yillar o‘rtalaridan shakllangan. 2006-yildagi Oliy sud qarori bilan harakat ekstremistik deb topilib, uning faoliyati taqiqlangan (RFE/RL, 2009). Tojikiston amaliyoti diniy faoliyatni markazlashgan tartibga solish va transmilliy diniy harakatlarning davlat bilan munosabatlarini o‘rganish uchun muhim. Bunda tashkilotning huquqiy maqomi bilan aniq ishtirokchilarning jinoiy javobgarligiga asos bo‘lgan harakatlarni bir-biridan farqlash talab etiladi. Ayniqsa, huquqiy baholashda shaxsiy javobgarlik, aybning isbotlanganligi va qonunning aniqligi kabi prinsiplar hisobga olinishi lozim.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘zbekiston. O‘zbekistonda diniy sohani huquqiy tartibga solish Konstitutsiya, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-699, 2021), «Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-489, 2018) hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Mamlakatda diniy xavfsizlikni ta’minlash va fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlash davlat siyosatining o‘zaro bog‘liq vazifalari sifatida belgilangan. 2025-yilda tasdiqlangan diniy sohadagi davlat siyosati konseptsiyasining 8-bandida mazkur siyosatning maqsadi fuqarolarning vijdon erkinligiga oid huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoit yaratish, diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni rivojlantirish va jamiyatda bag‘rikenglikni ta’minlashdan iborat ekani belgilangan. Konseptsiyaning 10-bandida esa qonuniylik, vijdon erkinligi, dinning davlatdan ajratilganligi, tenglik, erkin tanlov va dinlararo muloqot asosiy prinsiplar sifatida nazarda tutilgan (O‘RQ-1037, 2025:8–10-bandlar).

Ushbu normativ yondashuv transmilliy diniy harakatlarni baholashda ikki vazifani muvofiqlashtirishni talab etadi. Birinchisi – diniy ekstremizm, terrorizm va boshqa qonunga zid harakatlarning oldini olish. Ikkinchisi – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini, jumladan, vijdon erkinligini qonuniy tarzda amalga oshirish imkoniyatini ta’minlash.

Turkmaniston. Mamlakatda diniy sohani tartibga solish xususiyatlari transmilliy harakatlar faoliyatini o‘rganishda ahamiyatli. Biroq foydalanilgan manbalar «Tablig‘ jamoati»ning bu davlatdagi tashkiliy ko‘lami va aniq huquqiy maqomini yetarli darajada tasdiqlamaydi. Shu sababli Turkmaniston bo‘yicha boshqa mamlakatlar bilan teng darajadagi qiyosiy xulosa chiqarish uchun qo‘shimcha birlamchi materiallar zarur.

MUHOKAMA

Manbalar mintaqa davlatlarida harakatga nisbatan turli yondashuvlar shakllanganini ko‘rsatadi. Buni faqat harakatning ta’limoti bilan izohlash yetarli emas: davlatlarning diniy siyosati, huquqiy tizimi va mahalliy diniy institutlar bilan munosabatlari ham ahamiyatga ega. Qozog‘iston va Tojikistondagi taqiqlar haqidagi ma’lumotlar bilan Qirg‘izistonga oid tarixiy-sotsiologik tadqiqotlar turli xususiyatdagi manbalardir. Ularni qiyoslashda manbaning turi, sanasi va dalillash imkoniyati hisobga olinishi lozim.

Transmilliy diniy harakatning milliy xavfsizlikka ta’sirini baholashda uning nomi yoki konservativ qarashlarining o‘zi bilan cheklanib bo‘lmaydi. Amaldagi taqiqlar, sud qarorlari, zo‘ravonlik va adovatga undash, majburlash hamda boshqa qonunga zid xatti-harakatlar tekshirilishi zarur. Konstitutsiyaviy tuzumga oid baholashda qonunda nazarda tutilgan zo‘rlik bilan o‘zgartirish kabi belgilarni aniq ifodalash muhim (O‘RQ-489, 2018:3-modda). Shu asosda quyidagi tahliliy mezonlar taklif etiladi.

Birinchi mezon — g‘oyaviy mazmun: tarqatilayotgan materiallarda zo‘ravonlik, adovat yoki qonunda ekstremistik faoliyat sifatida belgilangan boshqa chaqiriqlar bormi? Ikkinchi mezon — ixtiyoriylik: diniy faoliyatda ishtirok etishga majburlash yoki bosim mavjudmi? Uchinchi mezon — tashkiliy shakl: faoliyatning huquqiy shakli, ro‘yxatdan o‘tish talablari va unga taalluqli sud qarorlari qanday? To‘rtinchi mezon — xorijiy aloqalar: moliyalashtirish, tashkiliy boshqaruv va diniy materiallar almashinuvi qonunchilikka muvofiqmi? Xorijiy aloqa mavjudligining o‘zi huquqbuzarlikni anglatmaydi. Beshinchi mezon — shaxsiy javobgarlik: muayyan shaxsning xatti-harakati, aybi va qonunda belgilangan javobgarlik asoslari isbotlanganmi? Bu mezonlar qonundagi huquqiy ta’riflarning o‘rnini bosmaydi, balki tadqiqot uchun tahliliy yo‘nalish beradi.

Mazkur mezonlar diniy konservatizm, ekstremizm va terrorizmni asossiz aynanlashtirishning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, diniy faoliyatdagi qonunbuzarliklar va zo‘ravonlikni targ‘ib etish holatlari dalillar asosida baholanishi kerak. Profilaktikada huquqiy tushuntirish, diniy savodxonlikni oshirish va malakali mutaxassislar bilan muloqot muhim o‘rin tutadi. Muayyan guruhga aloqadorlik haqidagi taxminni shaxsning aybi isbotlangani bilan tenglashtirish mumkin emas.

Tadqiqotning cheklovlari manbalarning turlicha xususiyati va davri, ayrim sud hujjatlarining to‘liq matni o‘rganilmagani hamda ishtirokchilar soni haqidagi ishonchli statistik ma’lumotlarning kamligi bilan bog‘liq. Shu sababli xulosalar harakatning barcha hududlardagi amaliyotini yoki bugungi huquqiy maqomini to‘liq qamrab oladi, deb talqin qilinmasligi kerak. Keyingi tadqiqotlarda sud hujjatlari, rasmiy ro‘yxatlar va sotsiologik materiallarni qiyosiy o‘rganish zarur.

NATIJA

Tahlilda harakatning tarqalishi diniy yangilanish g‘oyasi, oddiy ishtirokchilarning da’vatga jalb etilishi, jamoaviy safarlar va transmilliy aloqalar bilan bog‘liq ekani ko‘rsatildi. Bu omillar harakatning tashkiliy barqarorligi va yangi hududlarda ijtimoiy aloqalar

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

o‘rnatishini tushuntirishga yordam beradi.

Huquqiy qiyoslash manbalarni sanasi va maqomiga ko‘ra farqlash zarurligini ko‘rsatdi. Sud qarori yoki rasmiy ro‘yxat huquqiy maqomni o‘rganishga xizmat qilsa, tarixiy-sotsiologik tadqiqotlar harakatning muayyan davrdagi ijtimoiy xususiyatlarini ochib beradi. Ularning dalillash imkoniyati bir xil emas.

Milliy xavfsizlikka ta’sirni o‘rganish uchun g‘oyaviy mazmun, ixtiyoriylik, tashkiliy shakl, xorijiy aloqalar va shaxsiy javobgarlikdan iborat beshta tahliliy mezon taklif etildi. Ushbu mezonlar amaldagi qonunchilik va sud qarorlari bilan birgalikda qo‘llanishi kerak.

XULOSA

«Tablig‘ jamoati» transmilliy diniy harakatining tarixiy rivojlanishi, g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari va Markaziy Osiyodagi huquqiy maqomi bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin.

Birinchidan, harakat XX asr boshlarida Hindistonda Deoband maktabi bilan g‘oyaviy bog‘liq muhitda shakllangan bo‘lib, uning dastlabki faoliyati musulmon jamoalarida shaxsiy diniy-axloqiy yangilanish, ibodat va jamoaviy da’vat amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, harakatning tashkiliy xususiyatlari – olti tamoyil, «xuruj» amaliyoti, oddiy ishtirokchilarning da’vatga jalb etilishi va norasmiy transmilliy aloqalar – uning xalqaro miqyosda tarqalishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Uchinchidan, foydalanilgan manbalarda mintaqa davlatlarining turli yondashuvlari aks etgan. Ularni qiyoslashda tarixiy-ijtimoiy tavsif bilan amaldagi huquqiy maqomni farqlash, ma’lumotlarning sanasi va manba turini hisobga olish zarur.

To‘rtinchidan, diniy konservatizm, transmilliy diniy faoliyat, ekstremizm va terrorizm tushunchalarini ilmiy hamda huquqiy jihatdan farqlash zarur. Mazkur tushunchalarning asossiz umumlashtirilishi diniy harakatlarning haqiqiy xususiyatlarini baholashda metodologik xatolarga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, O‘zbekiston sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlash, diniy ekstremizmning oldini olish va vijdon erkinligini kafolatlash o‘zaro bog‘liq vazifalar sifatida amalga oshirilishi lozim. Buning uchun transmilliy diniy harakatlar faoliyatini g‘oyaviy mazmun, ixtiyoriylik, tashkiliy shakl, xorijiy aloqalar va shaxsiy javobgarlik mezonlari asosida baholash tavsiya etiladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O‘RQ-489-son «Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonuni [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/3841963
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O‘RQ-699-son «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/5491541
4. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi O‘RQ-1037-son Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konseptsiyasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/7404923
5. Balci B. The rise of the Jama‘at al Tabligh in Kyrgyzstan: the revival of Islamic ties between the Indian subcontinent and Central Asia? // Central Asian Survey. – 2012. – Vol. 31, № 1. – P. 61–76. – DOI: 10.1080/02634937.2012.647843
6. Qozog‘iston Respublikasi Antiterror markazi. Sud qarori bilan Qozog‘iston Respublikasi hududida taqiqlangan ekstremistik va terroristik tashkilotlar ro‘yxati [Elektron resurs]. – 12.01.2023. – URL: https://www.gov.kz/org/antiterrosticheskiy-centr/documents/details/399315?lang=ru
7. Gaborieau M. What is left of Sufism in Tablîghî Jamâ‘at? // Archives de sciences sociales des religions. – 2006. – № 135. – P. 53–72. – DOI: 10.4000/assr.3731
8. Khalid A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 2007.
9. Masud M. Kh. (ed.). Travellers in Faith: Studies of the Tablîghî Jamâ‘at as a Transnational Islamic Movement for Faith Renewal. – Leiden: Brill, 2000. – Introduction. – P. XIII–LX.
10. Metcalf B. D. Islamic Revival in British India: Deoband, 1860–1900. – Princeton: Princeton University Press, 1982.
11. Metcalf B. D. Living Hadîth in the Tablîghî Jamâ‘at // The Journal of Asian Studies. – 1993. – Vol. 52, № 3. – P. 584–608. – DOI: 10.2307/2058855
12. Noor F. A. Islam on the Move: The Tablighi Jama‘at in Southeast Asia. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2012.
13. Reetz D. Sûfî spirituality fires reformist zeal: The Tablîghî Jamâ‘at in today’s India and Pakistan // Archives de sciences sociales des religions. – 2006. – № 135. – P. 33–51. – DOI: 10.4000/assr.3715
14. RFE/RL. Tajikistan Justifies Extremist Group Arrests With Court Ruling [Elektron resurs]. – 30.04.2009. – URL: https://www.rferl.org/a/Tajikistan_Justifies_Extremist_Group_Arrests_With_Court_Ruling_/1619176.html
15. RFE/RL. Kazakhstan Bans Tablighi Jamaat [Elektron resurs]. – 26.02.2013. – URL: https://www.rferl.org/a/

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

kazakhstan-bans-tablighi-jamaat/24912890.html
16. Sikand Y. The Origins and Development of the Tablighi Jama‘at (1920–2000): A Cross-Country Comparative Study. – New Delhi: Orient Longman, 2002.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Tashkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Republic of Uzbekistan. Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida. Law No. O‘RQ-489 of July 30, 2018 [Electronic resource]. – URL: https://lex.uz/docs/3841963
3. Republic of Uzbekistan. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida. Law No. O‘RQ-699 of July 5, 2021 [Electronic resource]. – URL: https://lex.uz/docs/5491541
4. Republic of Uzbekistan. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi. Approved by Law No. O‘RQ-1037 of February 25, 2025 [Electronic resource]. – URL: https://lex.uz/docs/7404923
5. Balci, B. The rise of the Jama‘at al Tabligh in Kyrgyzstan: The revival of Islamic ties between the Indian subcontinent and Central Asia? // Central Asian Survey. – 2012. – Vol. 31, No. 1. – pp. 61–76. – DOI: 10.1080/02634937.2012.647843
6. Antiterrorism Centre of the Republic of Kazakhstan. Sud qarori bilan Qozog‘iston Respublikasi hududida taqiqlangan ekstremistik va terroristik tashkilotlar ro‘yxati [Electronic resource]. – January 12, 2023. – URL: https://www.gov.kz/org/antiterrosticheskiy-centr/documents/details/399315?lang=ru
7. Gaborieau, M. What is left of Sufism in Tablîghî Jamâ‘at? // Archives de sciences sociales des religions. – 2006. – No. 135. – pp. 53–72. – DOI: 10.4000/assr.3731
8. Khalid, A. Islam after communism: Religion and politics in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 2007.
9. Masud, M. Kh. (Ed.). Travellers in faith: Studies of the Tablîghî Jamâ‘at as a transnational Islamic movement for faith renewal. – Leiden: Brill, 2000. – Introduction, pp. XIII–LX.
10. Metcalf, B. D. Islamic revival in British India: Deoband, 1860–1900. – Princeton: Princeton University Press, 1982.
11. Metcalf, B. D. Living Hadîth in the Tablîghî Jamâ‘at // The Journal of Asian Studies. – 1993. – Vol. 52, No. 3. – pp. 584–608. – DOI: 10.2307/2058855
12. Noor, F. A. Islam on the move: The Tablighi Jama‘at in Southeast Asia. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2012.
13. Reetz, D. Sûfî spirituality fires reformist zeal: The Tablîghî Jamâ‘at in today’s India and Pakistan // Archives de sciences sociales des religions. – 2006. – No. 135. – pp. 33–51. – DOI: 10.4000/assr.3715
14. RFE/RL. Tajikistan justifies extremist group arrests with court ruling [Electronic resource]. – April 30, 2009. – URL: https://www.rferl.org/a/Tajikistan_Justifies_Extremist_Group_Arrests_With_Court_Ruling_/1619176.html
15. RFE/RL. Kazakhstan bans Tablighi Jamaat [Electronic resource]. – February 26, 2013. – URL: https://www.rferl.org/a/kazakhstan-bans-tablighi-jamaat/24912890.html
16. Sikand, Y. The origins and development of the Tablighi Jama‘at (1920–2000): A cross-country comparative study. – New Delhi: Orient Longman, 2002. Republic of Uzbekistan. Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida. Law No. O‘RQ-489 of July 30, 2018 [Electronic resource]. – URL: https://lex.uz/docs/3841963

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.